



ISSN 2181-1008  
DOI 10.26739/2181-1008



# ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА

НАУЧНОЕ ПЕРИОДИЧЕСКОЕ ИЗДАНИЕ



ТОМ 3, НОМЕР 1

# 2023



SAMARQAND VETERINARIYA  
MEDITSINASI INSTITUTI

ISSN 2181-1008

DOI 10.26739/2181-1008

# ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

3 ЖИЛД, 1 СОН

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА

ТОМ 3, НОМЕР 1

BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK

VOLUME 3, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2023

# ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА | BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK

№1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1008-2023-1>

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**А.С. Даминов**  
Узбекистан

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Х.Б. Юнусов**  
Узбекистан

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**А.Р. Курбонов**  
Узбекистан

**МАЪСУЛ КОТИБ | ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ | RESPONSIBLE SECRETARY:**

**Н. Б. Дилмуродов, Самарканд, Узбекистан**

**ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:**  
**РЕДАКЦИОННЫЙ КОЛЛЕГИЯ:**  
**EDITORIAL BOARD:**

**ТАҲРИРИЯТ КЕНГАШИ:**  
**РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:**  
**EDITORIAL BOARD:**

**Б. Т. НОРКОБИЛОВ**  
Ташкент, Узбекистан

**Ш. А. ДЖАББАРОВ**  
Ташкент, Узбекистан

**Б. А. ЭЛМУРАДОВ,**  
Ташкент, Узбекистан

**Н. А. БОБОКУЛОВ,**  
Ташкент, Узбекистан

**А. А. НУРМАТОВ,**  
Ташкент, Узбекистан

**Б. Б. БАКИРОВ**  
Самарканд, Узбекистан

**Х. Б. НИЁЗОВ,**  
Ташкент, Узбекистан

**Р. Б. ДАВЛАТОВ,**  
Ташкент, Узбекистан

**Э. С. ШАПТАКОВ**  
Ташкент, Узбекистан

**Х. С. САЛИМОВ**  
Самарканд, Узбекистан

**М. А. РУЗИМУРАДОВ**  
Ташкент, Узбекистан

**Д. А. АЗИМОВ**  
Ташкент, Узбекистан

**А. И. ЯТУСЕВИЧ**  
Минск, Республика Беларусь

**Д. А. ДЕВРИШОВ**  
Москва, Российская Федерация

**Ю. А. ЮЛДАШБОЕВ**  
Москва, Российская Федерация

**Д. Н. ФЕДОТОВ**  
Минск, Республика Беларусь

**К. Н. НОРБОЕВ**  
Самарканд, Узбекистан

**С. Ю. ЮСУПОВ**  
Самарканд, Узбекистан

**Х. А. ХАМДАМОВ**  
Ташкент, Узбекистан

**А. А. ЭЛМУРАДОВ**  
Самарканд, Узбекистан

**Б. Д. НАРЗИЕВ**  
Самарканд, Узбекистан

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Дилмуродов Н.Б., Ниёзов Ҳ.Б., Пардаева Ш.А., Мирзаев С.М., Бозоров Қ. СИГИРЛАРДА ПОДОДЕРМАТИТ ЖАРАЁНЛАРИНИ КЕЛТИРИБ ЧИҚАРУВЧИ ОМИЛЛАР ВА КЕЧИШ ХУСУСИЯТЛАРИ.....</b>	<b>5</b>
<b>2. Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich, Yusupov Azamat Rustam o'g'li OTLARDA SAKRASH BO'G'IMINING ASEPTIK YALIG'LANISHINI DAVOLASH.....</b>	<b>11</b>
<b>3. Ўрмонов Абдурасул Хасанович, Таштемиров Равшанбек Матлюбович СПОРТ ОТЛАРИДА МИОЗИТЛАРНИНГ КЕЧИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ДАВОЛАШ.....</b>	<b>16</b>
<b>4. Ниёзов Ҳаким Бақойвич, Абдиев Салоҳиддин Буранович ТУҒИШДАН КЕЙИНГИ ЭНДОМЕТРИТ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН СИГИРЛАРНИ ТУРЛИ УСУЛЛАР БИЛАН ДАВОЛАШДА УЛАРНИНГ КЛИНИК – ФИЗИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....</b>	<b>20</b>
<b>5. Djumanov Sobir Murodovich, Rashidov Bekjon SIGIRLARDA VOLA TASHLASHLARNI SABABLARI VA OLDINI OLISH.....</b>	<b>27</b>
<b>6. Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich, Chinmurodov Jahongir To'lqinjon o'gli SPORT OTLARIDA OG'IZ BO'SHLIG'I JAROHATLARI ETIOLOGIASI, KILINIKASI, DIAGNOSTIKASI, PROFILAKTIKASI.....</b>	<b>32</b>
<b>7. Даминов Асадулло, Боймуродов Хусниддин, Суяров Султон, Тошқузиёв Баҳодиржон ЗАРАФШОН ДАРЁСИ ЎРТА ОҚИМИ СУВ ЭКОТИЗИМЛАРИДА LYMNAEIDAE (RAFINESQUE, 1815) ОЙЛАСИ МОЛЛЮСКАЛАРИНИ ТАРҚАЛИШИ ВА УЛАРНИ ГЕЛЬМИНТОЗЛАРНИНГ ОРАЛИҚ ХЎЖАЙИНИ СИФАТИДАГИ ЎРНИ.....</b>	<b>37</b>
<b>8. Раҷамуродов Зайнитдин Туробович, Ахроров Маъруф Насимжонович ЯНГИ ТЎҒИЛГАН ҚЎЗИЛАРНИ ТИРИК ВАЗНИ, МУТЛОҚ ВА КУНЛИК ЎСИШИНИНГ ЁШГА ОИД ДИНАМИКАСИ ЎРГАНИШ.....</b>	<b>42</b>
<b>9. Яхяев Бахтиёр Садуллаевич ВЛИЯНИЕ КОМПЛЕКСНОЙ КОРМОВОЙ ДОБАВКИ НА ПЕРЕВАРИМОСТЬ ПИТАТЕЛЬНЫХ ВЕЩЕСТВ ПРИ ОТКОРМЕ КАРАКУЛЬСКИХ БАРАНЧИКОВ.....</b>	<b>48</b>
<b>10. Ходжаева Насиба, Акбарова Гулирухсор, Джурабаева Дилафруз AZOLLA CAROLINIANANINING MORFOBIOLOGIK ХУСУСИЯТЛАРИ.....</b>	<b>54</b>
<b>11. Qurbonova Zarnigor, Fayziyeva Sitara, Norboyev Qurbon BUZOQLAR DISPEPSIYASINING ANTINATAL SABABLARI.....</b>	<b>60</b>
<b>12. Norboyev.Q.N., Safarov. Sh.I. GOLSHTIN ZOTLI SOG'IN SIGIRLAR KETOZINING KELIB CHIQISH SABABLARI.....</b>	<b>65</b>
<b>13. Safarov M.B., Turdiqulov S. BIOLOGIK FAOL MODDALARDAN AYRIM VITAMINLARNING SOG'IN SIGIRLAR FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI (Adabiyotlar tahlili asosida).....</b>	<b>69</b>
<b>14. Djumanov Sobir Murodovich, Imomaliyev Shohruh SIGIRLARDA BACHADON CHIQISHI SABABLARI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH.....</b>	<b>73</b>
<b>15. Hamroqulov N.Sh., Ergashev J. TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARDA GIPOVITAMINOZLARNING DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI.....</b>	<b>78</b>




UDK: 577.16:636.2

**Safarov M.B.**,  
Ilmiy rahbar, v.f.n dotsent  
**Turdiqulov S.**  
Magistrant

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

**BIOLOGIK FAOL MODDALARDAN AYRIM VITAMINLARNING  
SOG‘IN SIGIRLAR FIZIOLOGIK KO‘RSATKICHLARGA TA‘SIRI  
(Adabiyotlar tahlili asosida)**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7816600>

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada biologik faol moddalar hisoblangan vitaminlarning ba‘zi guruhlari hamda ularning sog‘in sigirlarning fiziologik ko‘rsatkichlariga ta‘siri to‘g‘risidagi adabiyot ma‘lumotlari tahlili asosida keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Biologik faol modda, vitamin, oqsil, gipovitaminoz, retinol, tokoferrol, sianokobalamin, yog‘da eruvchi vitaminlar.

**Сафаров М.Б.**

Научный руководитель к.в.н., доцент

**Турдикулов С.**

магистрант

Самаркандский государственный университет  
ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии

**НЕКОТОРЫЕ ВИТАМИНЫ ИЗ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ  
ВЛИЯНИЕ МОЛОЧНЫХ КОРОВ НА ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ  
(На основе обзора литературы)**

**АННОТАЦИЯ**

Данная статья основана на анализе литературы о некоторых группах витаминов, являющихся биологически активными веществами, и их влиянии на физиологические показатели дойных коров.

**Ключевые слова.** Биологически активное вещество, витамин, белок, гиповитаминоз, ретинол, tokoferrol, цианокобаламин, жирорастворимые витамины.

**M.B. Safarov,**  
Scientific Supervisor,  
Candidate of Veterinary Sciences, Docent  
**S. Turdiqulov**  
Master Student

**CERTAIN VITAMINS FROM BIOLOGICAL ACTIVE SUBSTANCES EFFECT OF DAIRY COWS ON PHYSIOLOGICAL INDICATORS**

**(Based on a review of the literature)**

**ANNOTATION**

This article is based on an analysis of the literature on some groups of vitamins that are biologically active substances and their effect on the physiological parameters of dairy cows.

**Keywords.** Biologically active substance, vitamin, protein, hypovitaminosis, retinol, tocopherol, cyanocobalamin, fat-soluble vitamins.

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli farmonining 32-maqсадida chorvachilik oзуqа bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5 — 2 baravar ko‘paytirish hamda chorvachilik oзуqа bazasini mustahkamlash borasida vazifalarning belgilab berilganligi chorvachilik va veterinariya sohasi xodimlari zimmasiga qator mas‘uliyatlar yuklaydi[6.1]. Chorvachilik komplekslarida hamda aholi qaramog‘idagi sog‘in sigirlarning mahsulдорligini oshirish, ulardan olinadigan sut mahsulotining sifat va miqdor ko‘rsatkichlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘satadi. Ammo hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari chorvachilikda iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy to‘sqinliklardan biridir. Bular orasida sog‘in sigirlarda vitaminlar va ba’zi mineral moddalarning yetishmasligi ko‘p tarqalgan bo‘lib chorvachilik xo‘jaliklariga katta iqtisodiy zarar keltirmoqda .

Adabiyotlar ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki hozirgi kungacha Respublikamizda sog‘in sigirlarda vitamin va mineral moddalarning yetishmovchiligi tufayli turli xildagi yuqumsiz kasalliklar chorvachilik xo‘jaliklarida ko‘p uchramoqda. Ushbu kasalliklarning etiologiyasi ,diagnostikasi uning organizm tabiiy rezistentligi bilan bog‘liqligi hamda kasalliklarni davolash va oldini olish chora tadbirlari to‘liq o‘rganilmagan .Bunday kasalliklar kelib chiqishini oldini olish, davolashning zamonaviy usullarini ishlab chiqishda mahalliy vositalardan foydalanish va ishlab chiqarish amaliyotiga keng joriy qilish maqsadida biologik faol moddalardan ayrim mikroelementlar va vitaminlarning sog‘in sigirlar fiziologik ko‘rsatkichlarga ta’sirini o‘rganish muhim bo‘lib hisoblanadi. Biologik faol moddalardan ayrim mikroelementlar va vitaminlarning sog‘in sigirlar fiziologik ko‘rsatkichlarga ta’siri to‘g‘risidagi ilmiy-amaliy tajribalar hamda ma‘lumotlarni adabiyotlarda kam uchratdik.

**Vitaminlar haqida umumiy tushuncha.** Vitaminlar haqidagi ta’limotning rivojlanishi N.Lunin nomi bilan ham bog‘liqdir. U ovqat iste’mol qilish fanida yangi yo‘nalishni ochdi. Olim ovqat tarkibida oqsil, uglevod, yog‘, tuz va suvdan tashqari hayot uchun zarur bo‘lgan almashtirib bo‘lmaydigan qandaydir noma’lum moddalarning ham bo‘lishi kerak, degan xulosaga kelgan.[1] K.Funk birinchi bo‘lib kristall holda ajratib olingan «Beri-beri» kasalligi rivojlanishining oldini olgan organik moddani topgan va o‘z tarkibida aminoguruhlarini saqlagani uchun bu noma’lum moddalarni «Vitaminlar» deb atashni taklif etgan (lat.vita – hayot deganidir).[3]

Eruvchanligiga qarab yog‘da va suvda eruvchan vitaminlar tafovut etiladi.[2]

**Yog‘da eruvchan vitaminlar:**

1. Vitamin A, antikseroftalmik retinol.
2. Vitamin D, antiraxitik kalsiferol.
3. Vitamin E, antisteril, ko‘payish vitamini, tokoferollar.
4. Vitamin K, antigemorragik, naftaxinon.

**Suvda eruvchan vitaminlar:**

1. Vitamin B1, antinevrit, tiamin.
2. Vitamin B2, o‘shish vitamini, riboflavin.
3. Vitamin B6, antidermatit, adermin, piridoksin.
4. Vitamin B12, antianemik,kobalamin.

5. Vitamin PP, antipellagrik, niatsin, nikotinamid.
6. Vitamin Bs, antianemik, folat kislota.
7. Vitamin B3, antidermatit, pantotenat kislota.
8. Vitamin N, antiseborrey, bakteriyalar, achitqi o'sish omili, biotin.
9. Vitamin C, kapillyarlarni mustahkamlovchi, askorbin kislota.

**Fiziologik ta'siri bo'yicha vitaminlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:[2]**

1. Organizmning umumiy rezistentligini oshiruvchi vitaminlar: B1, B2, PP, A, C.
2. Antigemorragik vitaminlar: C, R, K.
3. Antianemik vitaminlar: B12, folat kislota, C.
4. Antiinfeksion vitaminlar: A, C.
5. Ko'rishni boshqaruvchi vitaminlar: A, B2, C.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki biologik faol moddalar, shu jumladan vitaminlar hayvonlar organizmi uchun metabolizm hamda bir qator fiziologik jarayonlarni normal kechishida va hayvonning genetik potentsiali, mahsuldorligi kabi ko'rsatkichlarga nihoyatda zarurdir. Shuni inobatga olgan holda sog'in sigirlarning fiziologik ko'rsatkichlarining me'yorda bo'lishi uchun ham vitaminlarning o'rni beqiyosdir.

Internet manbalarida yozilishicha sog'in sigirlarda ko'pincha A vitamini yetishmaydi. Shuning uchun uzoq qishning oxirida ularning ratsioniga baliq yog'i qo'shilishi kerak, chunki D3 etishmovchiligi tufayli sog'in sigirlar tishlarining qimirlab, tushib ketishi holatlari kuzatilishi mumkin.[6.3]

Ba'zi vitaminlarning yetishmasligi sog'in sigirlar bundan tashqari bo'g'oz sigirning o'zi hamda homila uchun ham xavfli hisoblanadi. [6.3]

Sabablari va ta'siri: B12 vitamini bo'g'oz sigir uchun juda zarur. Ushbu elementning etishmasligi zaif, kasal yoki o'lik buzoqchalarning tug'ilishiga olib keladi. B12 etishmovchiligi natijasida sigirning oshqozon devorlari organizm uchun zarur bo'lgan ozuqa moddalari va mikroelementlarni yomon qabul qiladi: qoramollar ozadi, qonda temir etishmasligi kuzatiladi.

Qoramol qonidagi E vitamini tuxumdonlarning to'g'ri ishlashi, bachadon devorlarining elastikligi, homila va ona organizmidagi metabolik jarayonlar uchun javobgardir. Agar sigir bo'g'oz bo'la olmasa, ehtimol unga E vitamini yetishmayapti. Ushbu element homiladorlikning har bir davrida muhim ahamiyatga ega. E komponenti sigirlarning oziqlanishiga juftlanishdan bir oy oldin qo'shiladi va homiladorlikning oxirigacha davom etadi.

D vitamin chorva mollari uchun juda muhimdir. D3 yetishmovchiligi buzoqlarda raxitning yagona sababidir. Bundan tashqari, ushbu modda qoramol organizmiga kaltsiyni singdirishga yordam beradi, ya'ni bu bo'g'oz hamda sog'in sigirning suyaklari va tishlarining holatiga ta'sir qiladi.

Buzoq uchun onadan ko'ra A vitamini muhimroq. Qishda tug'ilgan yoshlar karotinni mushak ichiga hayotning birinchi kunlarida olishadi. Bu buzoqlarning sog'lig'i bilan bog'liq jiddiy muammolardan qochishga yordam beradi.[4]

Agarda yuqoridagi vitaminlar sog'in sigirlar organizmida me'yordan kam bo'lib qolsa gipovitaminozlarga sababchi bo'ladi[5]. Professor Q.N.Norboyevning fikricha, gipovitaminozlar deganda organizmda vitaminlarning yetishmovchiligi tufayli kelib chiqadigan kasalliklar tushuniladi. Avitaminozlar (organizmda vitaminlarning umuman bo'lmasligi) tabiiy sharoitlarda juda kam qayd etiladi.

Hozirgi kunda yigirmadan ortiq vitaminlar va vitaminsimon moddalar ma'lum bo'lib, biologik faol moddalar sifatida hayvonlar organizmida kechadigan turli biokatalitik jarayonlarda qatnashish bilan ularning hayot faotiyatini me'yorda bo'lishini ta'minlaydi.[3]

Ko'p hollarda hayvonlarda poligipovitaminozlar qayd etilib noaniq klinik belgilar bilan surunkali tarzda kechadi. Gipovitaminozlarning sabablari ekzogen, endogen va aralash xarakterda bo'lishi mumkin. Ekzogen omillarga vitaminlarning oziqalar bilan me'yoridan kam miqdorda tushishi misol bo'ladi. Quyidagilar endogen omillar hisoblanadi: a) ayrim fiziologik holatlarda

(bo'g'ozlik, sut berish davri) va patologik jarayonlar paytida (kaxeksiya, tireotoksikoz, yuqumli kasalliklar va b.) vitaminlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi; b) hazm tizimi kasalliklari paytida vitaminlar so'rilishining yomonlashishi yoki parchalanishining kuchayishi; v) jigar va oshqozon osti bezi kasalliklarida yog'da eruvchi vitaminlar so'rilishining yomonlashishi. Bulardan tashqari gipovitaminozlarulaming biologik faolligini pasaytiruvchi yoki butunlay yo'qotuvchi ta'sirga ega bo'lgan moddalar "antivitaminlar"ning ta'sirida ham kelib chiqadi.[3]

**Xulosa** qilib aytish mumkinki sog'in sigirlarning fiziologik ko'rsatkichlarining me'yorda saqlanishi, ularning mahsuldorligi hamda genetik imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish uchun biologik faol moddalar, shu jumladan vitaminlarning me'yorda bo'lishi katta ahamiyatga ega. Vitaminlarning me'yordan ortishi ham kamayishi ham sog'in sigirlarning fiziologik ko'rsatkichlarining u yoki bu tomonga o'zgarishiga, shuning uchun ham ular organizmida metabolizmning buzilishiga olib kelishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Valixonov M.N. , "Biokimyo" Toshkent 2010
2. Sobirova R.A., Abrorov O.A., Inoyatova F.X., Aripov N.A., "Biologik kimyo" Toshkent 2006
3. Norboyev Q.N., Bakirov B.B., Eshbo'riyev B.M., "Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari" Samarqand 2020
4. Алиев А.А. Профилактика нарушений обмена веществ у сельскохозяйственных животных /Пер. со словац. К.С. Богданова, Г.А. Терентьевой. -М.: Агропромиздат, 1986.
5. Антоненко П.П. Групповая профилактика и терапия гиповитаминозов А и Е у коров в условиях интенсивного выращивания /П.П. Антоненко //Научное обеспечение агропромышленного комплекса. 4.Л - Днепропетровск, 1989.
6. Internet manbalari;
  - [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
  - [www.otmsamvmi.uz](http://www.otmsamvmi.uz)
  - [www.google.uz](http://www.google.uz)





**SAMARQAND VETERINARIYA  
MEDITSINASI INSTITUTI**

ISSN 2181-1008

DOI 10.26739/2181-1008

# **ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ**

**3 ЖИЛД, 1 СОН**

**ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА**

**ТОМ 3, НОМЕР 1**

**BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK**

**VOLUME 3, ISSUE 1**

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000